

Amaldagi qonun hujjatlarida Ovchilik xo‘jaliklari ov qilish va ovchilik xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi, yovvoyi hayvonlarni va ov qilish joylarini muhofaza qilishi, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha biotexnik tadbirlar o‘tkazishi, yovvoyi hayvonlar sonining hisobini yuritishi, tutiladigan yovvoyi hayvonlarning hisobini yuritishi, yovvoyi hayvonlarning takror ko‘paytirilishini ta‘minlashi, yovvoyi hayvonlar sonini tartibga solish bo‘yicha yovvoyi hayvonlar ayrim turlarining sonini ularning yashash joylari doirasida saqlab turishga, ko‘paytirishga yoki kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazishi belgilangan.

Mamlakatimizda 32 ta ovchilik xo‘jaliklari mavjud bo‘lib, shundan, 22 tasi bilan ovchilik xo‘jaligini yuritish huquqini beruvchi shartnoma asosida, 10 tasi esa “Ekoturizm va ovchilikni rivojlantirish departamenti” davlat muassasasi tasarrufidagi davlat o‘rmon va ovchilik xo‘jaliklari faoliyat yuritadi. O‘zbekistonda umumiy ov qilish uchun birlashtirilgan hudud 695334,77 gektarni tashkil etadi.